



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 01 | pp. 469-474 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORAT VA ICHKI AUDIT XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH



Fatilloev Jo'rabek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada budget tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmatining ahamiyati, ularning samaradorligini oshirish yo'llari va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Ichki nazorat tizimining samarali faoliyati byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishni, moliyaviy xatolarning oldini olishni va davlat resurslarining shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Maqolada ilg'or xalqaro tajribalar asosida ichki audit xizmatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari, zamonaviy yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida ichki audit tizimining institutsional bazasini mustahkamlash va kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: budget tashkilotlari, moliyaviy nazorat, ichki audit, samaradorlik, nazorat tizimi, audit xizmatlari, shaffoflik, davlat moliyasi, institutsional islohotlar, audit standartlari.

Kirish

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi byudjet xarajatlari yildan-yilga oshib, 2025-yil uchun davlat byudjeti xarajatlari 85 trillion so'mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Bunday sharoitda byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmatlarini takomillashtirish orqali mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash muhimdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ichki audit tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2024-yil 10-iyuldagi "Byudjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni bu borada muhim qadam bo'ldi. Mazkur farmonga muvofiq, davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari faoliyati takomillashtirilib, ularning vakolatlari kengaytirildi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2019-2023-yillar davomida byudjet tashkilotlarida o'tkazilgan ichki auditlar soni ortib, aniqlangan moliyaviy xatoliklar ulushi 2019-yildagi 40 foizdan 2023-yilda 30,4 foizga kamaygan. Bu esa ichki audit tizimining samaradorligi oshayotganini ko'rsatadi.

Kelgusida ichki audit xizmatlarini yanada rivojlantirish orqali byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va davlat resurslarining shaffofligini ta'minlash mumkin. Bu esa iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka xizmat qiladi.

Mamlakatimizda davlat sektori faoliyatini samarali tashkil etish va moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalasi ichki nazoratga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Umuman olganda, budjetdan ajratilayotgan mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishini nazorat qilish ham muhim hisoblanadi. Davlat sektorida ichki nazorat va davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishda so'nggi yillarda mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo, budjetdan ajratilayotgan mablag'larning talon-taroj qilinishi, maqsadsiz ishlatilishi kabi holatlar hozirda ham tez-tez uchrab turibdi. Mazkur holatlarning oldini olish borasida va ichki nazorat hamda davlat moliyaviy nazorati faoliyatini takomillashtirish, bu borada xorijiy davlatlar tajribalarini keng qo'llash, sohada raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Davlat sektorida ichki nazoratni tashkil etishning yangicha yondashuvlarini shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalar va uslublarni joriy qilish, xalqaro standartlarga, yetakchi xalqaro reyting tashkilotlari talablariga moslashtirish, undan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6300-son Farmoni [1], 2022-yil 14-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-128-son [2], 2018-yil 19-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son [3] qarorlari shular jumlasidandir.

Bugungi kunda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlash hamda ichki nazorat tizimining sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish zarurati paydo bo'lmoqda. Davlat organlarida ichki nazorat tizimi mavjud, biroq ijrochilar "ichki nazorat" atamasini noto'g'ri talqin qilib, uni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga bo'ysunuvchi organ va muassasalar ustidan nazorat faoliyati sifatida ko'radilar.

Davlat sektorida ichki nazorat tizimini rivojlantirishda oliy audit organlarining xalqaro standartlarining o'rnini hamda hissasini aniqlash, shuningdek uning ahamiyati va rolini oshirish, ichki nazoratni tashkil etishdagi muammolarni aniqlash va uning rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim masalalardan hisoblanadi.


Adabiyotlar tahlili

O'zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmatlarini takomillashtirish masalasi bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xaydarova N.A. tomonidan yozilgan "Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki auditni takomillashtirish yo'nalishlari" monografiyasida ushbu sohadagi amaliy jihatlar va takliflar batafsil yoritilgan.

Turdaliyev A.X. o'zining "Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmatini takomillashtirish" maqolasida budjet tashkilotlarining davlat xizmatlarini taqdim etishda muhim rol o'ynashi va shu sababli ularning moliyaviy nazorati va ichki audit xizmatlari samaradorligini oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

Davlat sektorida moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirishning bugungi holati va istiqboldagi yo'nalishlari haqida olib borilgan tadqiqotlar ham mavjud. Bu tadqiqotlarda davlat resurslaridan samarali foydalanish va strategik maqsadlarga erishish uchun nazorat jarayonlarini optimallashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, budjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobi va nazoratini takomillashtirish masalalari ham tahlil qilingan. Bu tadqiqotlarda moliyaviy aktivlarni to'g'ri boshqarish va nazorat qilish jarayonlari orqali budjet tashkilotlarining samaradorligini oshirish va ularning moliyaviy ahvolini yaxshilash mumkinligi ko'rsatilgan.



1-rasm. Davlat sektorida ichki nazorat maqsadlari¹

Respublikamizda auditning xalqaro standartlari asosida audit tekshiruvlarini o'tkazish amalga oshirib kelinmoqda. Axborotlarning ishonchli shakllantirilishi borasida to'xtalib, Tulaxodjayeveva (1996) shunday deb ta'kidlagan edi; «Bizga ma'lumki, to'liq va to'g'ri axborot ish faoliyatining ma'lumotlarini keng ko'lamda bo'lishiga, axborotning yo'qligi esa nazoratsizlik va tartibsizlikka olib keladi».

Bizningcha, auditorlik munosabatlarini o'rganishda rivojlangan davlatlardagi tajribalar asos bo'lishi mumkin:

- audit o'tkazish obyektlarini ajratib olish, ya'ni davlat tashkilotlari va xususiy korxonalaridagi auditorlik xizmatlari;
- auditning vazifalarini ajratib olish, budjet tushumlari va xarajatlar, hisobotlardagi moliyaviy natijalar ustidan nazorat qilish, zarur hollarda mulk saqlanishining nazorati va

¹ Muallif ishlanmasi.

hokozolar; hududlarda xizmat qilayotgan auditorlik firmalarning ta'sir doirasini kuchaytirish.

Umuman, bu fikrlar mulk munosabatlariga va shu hisob munosabatlarning o'zgarishidan kelib chiqayotgan bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob beradi, deb hisoblaymiz.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda budget tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmatini takomillashtirish bo'yicha quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

1. Nazariy tahlil: Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va maqolalar o'rganilib, budget tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmatining dolzarb masalalari aniqlashtirildi.

2. Xalqaro tajriba tahlili: Davlat sektorida ichki auditning xalqaro standartlari va ularning milliy standartlar bilan uzviy bog'liqligi o'rganildi. Xalqaro standartlarning umumiy mazmuni va tarkibiy tuzilishi haqida ma'lumotlar tahlil qilindi.

3. Statistik tahlil: Budget tashkilotlarida o'tkazilgan ichki auditlar soni va aniqlangan moliyaviy xatoliklar ulushi bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Masalan, 2019-2023-yillar davomida aniqlangan moliyaviy qoidabuzarliklar va budget mablag'lari miqdori o'rganildi.

4. Bashorat qilish: Olingan natijalar asosida kelgusida ichki audit xizmatlarini yanada rivojlantirish orqali budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va davlat resurslarining shaffofligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar

O'zbekiston Respublikasida budget tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida quyidagi muhim yutuqlarga erishildi:

1. Ichki audit xizmatlarining faoliyati samaradorligini oshirish: 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-sonli Prezident farmoniga muvofiq, davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlarining yillik ish rejaları Hisob palatasi bilan kelishilishi belgilandi. Bu esa nazorat tadbirlarining takrorlanishini oldini olish va risk-tahlillar asosida nazorat ishlarini o'tkazish imkonini yaratdi.
2. Normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilishi: 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining Yagona budget tizimini isloh qilish strategiyasiga muvofiq, budget hisobi standartlarini birxillashtirish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda budget jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish choralari amalga oshirildi.
3. Xalqaro tajriba va standartlarga moslashish: Davlat sektorida ichki auditning xalqaro standartlarini joriy etish orqali ichki audit xizmatlarining faoliyati xalqaro talablarga moslashtirildi. Bu esa ichki audit jarayonlarining sifatini oshirishga xizmat qildi.

O'tgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va

mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi. Auditorlik xizmatlari bozorining rivojlanishi uchun sharoitlarni yanada yaxshilash va auditorlik faoliyatini tartibga solishda xalqaro standartlarga muvofiq zamonaviy yondashuvlarni joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrda «O'zbekiston respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-3946-son qarori qabul qilindi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-4611-son qarori qabul qilindi.

Auditning xalqaro standartlari (AXS)ni O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun ularni tan olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. 2021-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 9- moddasida ko'ra AXSlar auditni me'yoriy tartibga solish elementi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar auditorlik faoliyatining respublikamiz va xalqaro amaliyotida olinadigan dalillarning yetarlilik darajasini va ularni to'plashga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (Nyu-York) tomonidan davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari ishlab chiqilgan (bundan keyin DSBHXS). 2000-yildan boshlab «Buxgalterlarning xalqaro federatsiyasi» «Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari» ni nashr ettira boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qabul qilingan «Davlat moliyasini boshqarishning isloh qilish dasturi»da davlat sektorida buxgalteriya hisobini «Davlat moliyasi statistikasi bo'yicha qo'llanma 2001»ga va hisoblash metodi uchun «Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari»ga muvofiq olib borishga erishish islohotning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaralgan.

Xulosa

Auditning turlari: iqtisodiyotning davlat sektori subektlarining auditini uchta asosiy audit turlaridan bittasiga (yoki bir nechtasiga) bog'lash mumkin:

- moliyaviy audit;
- muvofiqlik auditi;
- samaradorlik auditi.

ISSAI tomonidan taqdim etilgan uch turdagi audit doirasidagi audit mavzusi quyidagi elementlardan iborat:

moliyaviy auditning subyekti moliyaviy holat, faoliyat, pul oqimi yoki moliyaviy hisobotda aniqlanadigan, o'lchanadigan va taqdim etiladigan boshqa elementlardir. Tekshirish predmeti to'g'risidagi ma'lumotlar moliyaviy hisobot hujjatlari;

- muvofiqlik auditi predmeti audit chegarasi bilan belgilanadi. Bu faoliyat, moliyaviy bitimlar yoki ma'lumot bo'lishi mumkin.

- samaradorlik auditi mavzusi aniq vazifalar bilan belgilanadi. Mavzu aniq dasturlar, tashkilotlar, fondlar yoki muayyan harakatlar (ularning miqdoriy natijalari va moliyaviy oqibatlar bilan birga), mavjud vaziyatlar (shu jumladan sabablar va oqibatlar), shuningdek, ushbu elementlarning har qandayiga oid moliyaviy ma'lumotlari bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ахмеджанов К.Б. Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит методологиясини такомиллаштириш. Дисс. автореф. и.ф.д.. – Тошкент. 2016.
2. Ибрагимов А.К., Сугирбаев Б.Б. Бюджет назорати ва аудити. Ўқув қўлланма. infoCOM.Uz МЧЖ. Т.: 2010. 192 б.
3. Ефимова Н.П. Государственный финансовый контроль в реализации федеральных целевых социальных программ. -М.: Медицина, 2020. 174 с.
4. Четыркин Е.М., Васильева Н.Е. Выборочные методы в аудите: учебно-практическое пособие М.: КНОРУС, 2010. 179 с.
5. Максимов Г.В., Новоселова И.В. Организация и методика корпоративного внутреннего аудита. Монография. Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2010. 186 с.
6. Turabov V.T. O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazoratni takomillashtirish (ta'lim tizimi misolida). iqt. fan. doktori. dis. avtoreferati. –Т.: O'zRDBA., 2023. 16 b

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

